



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, fevral.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
TEMIR YO'L YO'LLARINI TA'MIRLASH KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	46
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING XORIJ TAJRIBASI.....	51
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA BUDJET OCHIQLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA QONUNCHILIK BAZASINING EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	55
Mamanov Alisher Umbarovich	
ENERGETIKA TARMOG'I KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH YO'LLARI.....	60
Xamdamova Gavxar Absamatovna	
SMART UNIVERSITET MODELINING XALQARO TAJRIBASI VA UNI YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHTIRISH MASALALARI.....	65
Saloxiddinova Sitora Baxodir qizi	
IJTIMOIIY OBYEKTlarda QURILISH XIZMATLARINI MOLiyALASHTIRISHNING NAZARIY – ASOSIY TAMOIYILLARI.....	68
Gapparov Azim Qayumovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATIGA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH.....	72
Zaripov Shoxboz Alijon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA IJTIMOIIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	75
Kolmatova Asila Menglimurod qizi	
РОЛЬ GREEN BONDS В МЕЖДУНАРОДНОЙ ФИНАНСОВОЙ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	81
Н.Т. Бекназарова	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK BOSHQARUV VA AUDIT.....	86
Shaymatova Nargiza Ashurovna	
NORASMIY IQTISODIYOTNING MAVJUDLIGINING NAZARIY MASALALARI VA UNI ANIQLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI.....	93
Alimardonov G'ayratjon Nuraliyevich	
DIGITAL TWIN-BASED DECISION SUPPORT FOR COST OPTIMIZATION AND RISK MANAGEMENT IN INFRASTRUCTURE SYSTEMS.....	99
Nelyufar Umarovna Dadabayeva	
PAXTA BO'LAKCHASINING OG'MA TO'RLI YUZA SIRTI BO'YLAB HAVO OQIMI TA'SIRIDAGI HARAKATINING MATEMATIK MODELI.....	108
Karimov Abdusamat	
АДАПТИВНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ К ВНЕШНИМ РИСКАМ И ГЕОЭКОНОМИЧЕСКИМ ТЕНДЕНЦИЯМ.....	115
Бабаджанов Шухрат Атахмович	
“TIBBIYOT BOZORINING UZLUKSIZ RIVOJLANISHI UCHUN MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI”.....	120
Abdumalikov Shoxjahon Jaloliddin o'g'li	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI VA BANDLIKKA TA'SIRI.....	124
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	



XORAZM VILOYATIDA ETNOGRAFIK TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING AHAMIYATI	129
Ro'zimatova Shaxlo Baltaboy qizi	
THE FEAR OF MISSING OUT (FOMO) EFFECT IN ADVERTISING AND ITS NEUROPSYCHOLOGICAL IMPACT ON IMPULSE BUYING	134
Negmatov Nodir Nozimovich	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA TENDENSIYALARI TAHLILI.....	139
Aytiyeva Sevara	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA O'ZBEKISTON UCHUN AHAMIYATI.....	149
Abdullayeva Matluba Nematovna, Nuriddinov Kamoliddin Faxriddin o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	155
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
POPULATION IMPACT ON CONSUMER CULTURE AND NATIONAL ECONOMIC GROWTH.....	160
Rustamov Sherov Oblokulovich	
AVTOTRANSPORT KORXONALARINING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI VA ULARNI YAXSHILASHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	164
Laylo Akbarova, Komolov Adxam Dilshod o'g'li	
MODELING THE DIFFUSION OF DIGITAL BANKING ADOPTION IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM TBC BANK USING THE BASS DIFFUSION MODEL AND A HYBRID REGRESSION APPROACH	169
Feruza Nabieva	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK XARAJATLARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH VA BAHOLASH	176
Rabbimov Elbek Abdulloyevich, G'afforov Ilhom Ilyosjonovich, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
O'ZBEKISTONNING YANGI BOZORLARGA CHIQUISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING INTEGRALLASHGAN MODELI.....	183
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-KONSEPTUAL ASOSLANISHI.....	188
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISH VA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	194
Turg'unov Nodirbek Muminjanovich	
SANOAT KORXONALARI TUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI	198
Jabborov Elbek Erkin o'g'li	
SOLIQ STAVKALARINI TABAQALASHTIRISHNING TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	202
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
MINTAQALAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLARNI KAMAYTIRISHNI TA'MINLASHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	208
Egamov Temur Muzaffarovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLYAVIY RAG'BATLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	213
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING O'RNI VA OBYEKTIV ZARURLIGI.....	217
Achilova Firuza Kurbanovna	
INVESTITSIYALARNI JALB ETISH ORQALI MAXSUS IQTISODIY ZONALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	222
Ergashev Olim	



KICHIK BIZNES INNOVATSION FAOLIYATINING RIVOJLANISHIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR	227
Amirov Zubaydulla Toir o'g'li	



KICHIK BIZNES INNOVATSION FAOLIYATINING RIVOJLANISHIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR



Amirov Zubaydulla Toir o'g'li

Toshkent arxitektura qurilish universiteti
Iqtisodiyot va ko'chmas mulk kafedrasida katta o'qituvchisi.

E-mail: zubaydulla@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayonlari hamda uning asosiy tendensiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida O'zbekistonda innovatsiyalarni joriy etgan korxonalar soni, innovatsion faoliyat hajmi va yuqori texnologiyali tarmoqlarning iqtisodiyotdagi ulushi statistik ma'lumotlar asosida o'rganildi. Tahlil natijalari kichik biznes innovatsion faolligining miqdoriy jihatdan o'sib borayotganini ko'rsatsa-da, innovatsion jarayonlarning barqarorligi va samaradorligi yetarli darajada shakllanmaganini aniqladi. Maqolada innovatsion rivojlanishga ta'sir etuvchi iqtisodiy, institutsional va ichki omillar yoritilib, davlat, biznes va ilm-fan o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarurligi asoslab berildi. Tadqiqot yakunida kichik biznesning innovatsion faolligini oshirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, innovatsion faoliyat, innovatsiyalar, innovatsion rivojlanish, tadbirkorlik, raqobatbardoshlik.

Abstract. This article analyzes the processes of developing innovative activity in small business and private entrepreneurship, as well as the main trends in this area. The study examines, based on statistical data, the number of enterprises implementing innovations in Uzbekistan, the volume of innovative activity, and the share of high-tech sectors in the economy. The results indicate a quantitative increase in the innovative activity of small businesses; however, the stability and effectiveness of innovation processes remain insufficiently developed. The article highlights economic, institutional, and internal factors influencing innovative development and substantiates the need to strengthen cooperation between the state, business, and science. As a result of the study, practical recommendations aimed at increasing the innovative activity of small businesses are proposed.

Key words: small business, innovative activity, innovation, innovative development, entrepreneurship, competitiveness.

Аннотация. В данной статье анализируются процессы развития инновационной деятельности малого бизнеса и частного предпринимательства, а также основные тенденции данного процесса. В ходе исследования на основе статистических данных изучены количество предприятий, внедряющих инновации в Узбекистане, объем инновационной деятельности и доля высокотехнологичных отраслей в экономике. Результаты анализа показывают количественный рост инновационной активности малого бизнеса, однако выявлено, что устойчивость и эффективность инновационных процессов сформированы недостаточно. В статье рассмотрены экономические, институциональные и внутренние факторы, влияющие на инновационное развитие, а также обоснована необходимость усиления взаимодействия между государством, бизнесом и наукой. По итогам исследования разработаны практические предложения, направленные на повышение инновационной активности малого бизнеса.

Ключевые слова: малый бизнес, инновационная деятельность, инновации, инновационное развитие, предпринимательство, конкурентоспособность.



KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning innovatsion faolligi iqtisodiy o'sish, raqobatbardoshlik hamda barqaror rivojlanishni ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Innovatsiyalarni joriy etish orqali kichik biznes subyektlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, bozor talablariga tez moslashish, shuningdek, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulot va xizmatlar yaratish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Shu bois kichik biznes innovatsion faoliyatining rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, investitsiyalarni jalb etish va innovatsion muhitni shakllantirishga qaratilgan. Natijada kichik biznes subyektlari sonining o'sishi bilan bir qatorda, ularning investitsiya, savdo va tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki ham izchil kengayib bormoqda. Shu bilan birga, miqdoriy o'sish innovatsion faollikning barcha jihatlarida yetarli darajada rivojlanganini har doim ham to'liq aks ettirmasligi mumkin.

Amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, kichik biznesda innovatsion faoliyat ko'proq jarayon innovatsiyalariga yo'naltirilgan bo'lib, mahsulot va texnologik innovatsiyalar ulushi nisbatan cheklanganligicha qolmoqda. Hududlar kesimida innovatsion faollik darajasida muayyan tafovutlar kuzatiladi, bu holat ilmiy-tadqiqot salohiyati, infratuzilma imkoniyatlari hamda kadrlar ta'minoti bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu jihatlar kichik biznes innovatsion faoliyatining asosiy tendensiyalarini aniqlash va ularni chuqur tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur maqolada kichik biznes innovatsion faoliyatining rivojlanish tendensiyalari statistik ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinib, innovatsion faollikka ta'sir etuvchi omillar hamda uni yanada jadallashtirish yo'llari yoritib beriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznesning innovatsion faoliyati masalalari iqtisodiy rivojlanish nazariyasida muhim o'rin tutadi hamda xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng ko'lamda o'rganilgan. Xususan, innovatsiya va tadbirkorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, innovatsion rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlarini tashkil etadi.

Jozeif Shumpeterning innovatsion rivojlanish nazariyasida tadbirkor innovatsiyalarni amalga oshiruvchi asosiy subyekt sifatida talqin qilinadi. Olim innovatsiyalarni iqtisodiy o'sishning muhim harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholab, kichik biznesning bozordagi faol rolini nazariy jihatdan asoslab beradi.

Piter Druker o'z tadqiqotlarida innovatsiyani tadbirkorlik faoliyatining tizimli elementi sifatida ko'rib, uni maqsadli va rejali tarzda boshqarish mumkinligini ta'kidlaydi. Uning ilmiy ishlarida kichik biznes subyektlarida innovatsion faoliyatni tashkil etish hamda strategik qarorlar qabul qilish masalalari keng yoritilgan.

Xalqaro tashkilotlar, jumladan OECD va Jahon banki tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kichik va o'rta biznesning innovatsion rivojlanishida raqamli texnologiyalar, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari hamda institutsional muhitning ta'siri tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlarda innovatsiyalarni rag'batlantirishda davlat siyosatining muhim o'rni alohida ta'kidlanadi.

MDH mamlakatlari olimlari, jumladan A.N. Asaul va I. Ansoff ishlarida kichik biznesning innovatsion strategiyalari, raqobatbardoshlikni oshirish hamda innovatsion infratuzilmani shakllantirish masalalari o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda asosiy e'tibor strategik boshqaruv va klaster yondashuviga qaratilgan.

O'zbekistonlik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, shuningdek, innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmlari tahlil qilingan. Shu bilan birga, mavjud ilmiy ishlar ko'proq institutsional va tashkiliy jihatlariga yo'naltirilgan bo'lib, kichik biznes innovatsion faoliyatining zamonaviy tendensiyalari hamda ularning o'zaro va kompleks ta'siri yanada chuqurroq o'rganishni talab etadi.

Ushbu maqolada mavjud tadqiqotlardan farqli ravishda kichik biznes innovatsion faoliyatining rivojlanish tendensiyalari tizimli va qiyosiy tahlil asosida, xorijiy tajriba hamda mahalliy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda o'rganiladi. Maqolaning ilmiy yangiligi kichik biznes innovatsion faoliyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni kompleks baholash va ularning o'zaro bog'liqligini aniqlashdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Jumladan, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv hamda qiyosiy taqqoslash usullari qo'llanildi.

Asosiy tadqiqot usuli sifatida qiyosiy taqqoslash usuli tanlandi. Mazkur usul yordamida xorijiy mamlakatlarda kichik biznesning innovatsion faoliyatini rivojlantirish tajribasi O'zbekiston sharoiti bilan solishtirma tahlil qilindi.



Qiyosiy tahlil natijasida xorijiy tajribadan mahalliy sharoitda qo'llash mumkin bo'lgan samarali yondashuvlar aniqlandi hamda ular asosida amaliy taklif va xulosalar ishlab chiqildi. Shuningdek, tizimli yondashuv asosida kichik biznesning innovatsion faoliyati yagona iqtisodiy tizim sifatida ko'rib chiqilib, uning tarkibiy elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar ochib berildi.


Qo'llanilgan metodologiya tadqiqot natijalarining ilmiy asosliliigi va amaliy ahamiyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda innovatsion rivojlanish uchun muayyan ilmiy va intellektual salohiyat shakllangan bo'lsa-da, uning amaliy natijalarga aylanish darajasi rivojlangan mamlakatlar tajribasi bilan solishtirilganda yetarli darajada yuqori emas. Ushbu holat innovatsion jarayonlarning uzluksiz tizim sifatida to'liq shakllanmaganligi, ya'ni ilmiy ishlanmalar, tadbirkorlik tashabbuslari va bozor talabi o'rtasidagi institutsional bog'liqlikning yetarli darajada mustahkam emasligi bilan izohlanadi. Xususan, iste'molchilarning yangi mahsulot va xizmatlarni qabul qilishga tayyorlik darajasining cheklanganligi, ilmiy ishlanmalarning biznes subyektlari tomonidan ehtiyotkorlik bilan qabul qilinishi hamda intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish mexanizmlarining rivojlanish darajasi innovatsion faollikka ma'lum darajada ta'sir ko'rsatayotgan omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur sharoitda kichik innovatsion korxonalar innovatsion tizimning muhim bo'g'ini sifatida ilm-fan va biznes o'rtasidagi o'zaro aloqalarni mustahkamlash imkoniyatiga ega. Aynan kichik biznes subyektlarining moslashuvchanligi, tavakkalchilikka nisbatan nisbatan yuqori tayyorligi hamda bozor o'zgarishlariga tezkor javob berish qobiliyati ularni innovatsiyalarni amaliyotga joriy etishda muhim institutga aylantiradi.

So'nggi yillarda innovatsion rivojlanish O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangani natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni innovatsion asosda rivojlantirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy baza izchil takomillashtirilmoqda. Korxonalarni tarkibiy jihatdan qayta tashkil etish, ularning faoliyatini erkinlashtirish hamda moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlarning joriy etilishi kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyati samaradorligini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratmoqda. Shu bilan birga, mazkur chora-tadbirlarning real iqtisodiy natijalarga aylanishi kichik biznes innovatsion faolligining asosiy tendensiyalarini chuqur tahlil qilish va tizimli yondashuvni qo'llashni taqozo etadi.



1-rasm. Global innovatsion indeks reytingida O'zbekistonning pozitsiyasi va uni yaxshilash tendensiyalari

Tadqiqot jarayonida mamlakatda innovatsion faollikni oshirish va mavjud salohiyatdan samarali foydalanishga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli omillar aniqlandi. Ushbu omillarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruh iqtisodiy omillarni qamrab oladi. Ularga innovatsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarining nisbatan cheklanganligi, innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish bilan bog'liq xarajatlarning yuqoriligi hamda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari qiymatining salmoqli ekanligi kiradi. Ikkinchi guruh ichki omillar bilan bog'liq bo'lib, kichik biznes subyektlarida innovatsion salohiyatning yetarli darajada shakllanmaganligi, malakali kadrlar ta'minotining cheklanganligi, zamonaviy texnologiyalar bo'yicha axborot yetishmasligi, shuningdek, innovatsion marketing va kooperatsiya aloqalarining rivojlanish darajasi bilan izohlanadi. Uchinchi guruh institutsional omillarni o'z ichiga olib, innovatsion infratuzilmaning rivojlanish darajasi, konsalting va vositachilik xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi hamda tadbirkorlar orasida tavakkalchilikka nisbatan ehtiyotkorlikning yuqoriligi bilan tavsiflanadi.



Shu bilan birga, yaqin istiqbolda innovatsion rivojlanish sohasida hal etilishi lozim bo'lgan muammolar ham mavjudligicha qolmoqda. Jumladan, mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlar sonining ortib borishi sharoitida yuqori texnologik ish o'rinlarini yaratish, innovatsiyalar asosida bandlikni kengaytirish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalarni davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish hamda hududlarning ilmiy-texnik salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

Mazkur sharoitda kichik biznes subyektlari resurslarning nisbatan cheklanganligiga qaramay, moslashuvchanlik va bozor o'zgarishlariga tezkor javob bera olish xususiyati bilan innovatsion rivojlanishning muhim drayverlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Kichik biznesda innovatsion faollikni oshirish nafaqat iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga, balki bandlik muammolarini yumshatish hamda raqobat muhitini sog'lomlashtirishga ham xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan mamlakat iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish darajasini kompleks baholash, innovatsion faollikni aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkichlarni tizimli tahlil qilish zarurati yuzaga keladi.

1-jadval. O'zbekistonda innovatsion faoliyatning asosiy ko'rsatkichlari (2014-2024-yillar)

Ko'rsatkichlar	2014-yil	2015-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Innovatsion faoliyat ko'rsatkichlari (umumiy soni), birlik	500	1819	4689	4290	4148	3792	8294	5521
Innovatsiyalar joriy qilgan korxona va tashkilotlar soni, birlik	149	935	1587	1217	1151	1323	5026	1835
Korxona va tashkilotlarning innovatsion hajmi, trln so'm	1,85	8,02	26,81	31,14	27,38	40,45	55,75	63,60

Umumlashtirilgan jadval ma'lumotlari 2010-2024-yillar davomida mamlakatda innovatsion faoliyatning miqdoriy va moliyaviy ko'rsatkichlari sezilarli darajada kengayganini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2017-yildan keyingi davrda innovatsion faoliyat hajmi hamda innovatsiyalarni joriy etgan korxonalar sonida barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Shu bilan birga, ayrim yillarda innovatsion faoliyat ko'rsatkichlarida ma'lum darajadagi tebranishlar qayd etilib, bu innovatsion jarayonlarning barqarorligini yanada mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.

Bizning fikrimizcha, innovatsion rivojlanishni yanada jadallashtirish uchun davlat, biznes va ilm-fan o'rtasida uzviy hamda institutsional jihatdan mustahkam integratsiyalashgan tizimni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliyotda mazkur subyektlar faoliyatining yetarli darajada uyg'unlashmaganligi innovatsion g'oyalarning bozorga chiqish jarayonini muayyan darajada sekinlashtirishi mumkin. Ushbu uzilishlarni kichik innovatsion biznes mexanizmlari orqali samarali tarzda bartaraf etish imkoniyati mavjud.

Kichik biznes korxonalari innovatsion g'oyalarning "bozor generatori" sifatida bir qator ustunliklarga ega. Jumladan, ular noaniqlik sharoitida qaror qabul qilishda yuqori moslashuvchanlikka ega bo'lib, ishlab chiqarish va boshqaruv innovatsiyalariga sezuvchanligi, tashqi ta'sirlarga tez moslasha olishi, tor ixtisoslashuvi hamda mablag'lar aylanishining tezligi bilan ajralib turadi. Ushbu xususiyatlar kichik biznesda yuqori innovatsion salohiyatni shakllantirish uchun muhim shart-sharoit hisoblanadi.

Shu bilan birga, kichik korxonalarda ilmiy-texnik ishlanmalarni amaliyotga joriy etish jarayonida ayrim cheklavlar ham uchraydi. Xususan, innovatsiyalardan foydalanish huquqlari bilan bog'liq axborot nomutanosibligi ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish jarayonini murakkablashtirishi mumkin. Innovatsiya qanchalik murakkab bo'lsa, uning iqtisodiy salohiyatini baholashdagi farqlar shunchalik kuchayadi va bu holat innovatsion jarayonlar samaradorligiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, kichik biznes nafaqat iqtisodiyotning muhim tarkibiy elementi, balki innovatsiyalar va yangi ish o'rinlarini yaratishning samarali manbai hisoblanadi. Yirik korporatsiyalar bilan solishtirganda resurslari nisbatan cheklangan bo'lsa-da, kichik biznes yangi mahsulot va xizmatlarni joriy etishda faol tashabbuskor sifatida maydonga chiqadi.

O'zbekistonda innovatsion kichik biznesning shakllanishi 1990-yillarning o'rtalaridan boshlangan bo'lib, 2016-yildan keyin innovatsion siyosatda yangi bosqich yuzaga keldi. Xususan, 2018-yilning "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilinishi hamda 2022-2026-yillarga mo'ljallangan innovatsion rivojlanish strategiyasining qabul qilinishi ushbu yo'nalishda tizimli yondashuvni shakllantirdi.

Mazkur strategiyada yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirish, ilm-fanga asoslangan yangi quvvatlarni yaratish hamda yuqori daromadli ish o'rinlarini tashkil etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo'lib, bu kichik innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish uchun muhim institutsional asos bo'lib xizmat qiladi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik innovatsion rivojlanishning muhim institutsional tayanchi hisoblanadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda innovatsion faoliyat ko'rsatkichlarining miqdoriy o'sishi kuzatilayotgan bo'lsa-da, ularning barqarorligi va iqtisodiy samaradorligini ta'minlash masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Innovatsiyalarni joriy etgan korxonalar soni hamda innovatsion faoliyat hajmining ortib borishi mavjud salohiyatdan foydalanish imkoniyatlari kengayayotganini tasdiqlaydi, biroq innovatsion jarayonlarning tizimli va uzviy integratsiyasi hali yetarli darajada shakllanmagan.

O'tkazilgan tahlillar kichik biznes innovatsion faolligiga ta'sir etuvchi asosiy cheklovchi omillar sifatida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarining rivojlanish darajasi, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish jarayonidagi institutsional uzilishlar, kadrlar salohiyatining yetarli darajada shakllanmaganligi hamda innovatsion infratuzilmaning hududlar kesimida notekis rivojlanganligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlarining moslashuvchanligi va bozor talablariga tezkor javob bera olish xususiyati ularni innovatsion rivojlanishning strategik drayverlaridan biriga aylantiradi.

Davlat, biznes va ilm-fan o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning yetarli darajada muvofiqlashtirilmaganligi innovatsion jarayonlarda muayyan nomutanosibliklarni yuzaga keltirib, ilmiy g'oyalarning real iqtisodiyotga joriy etilish sur'atlariga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois kichik innovatsion tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash mamlakatning uzoq muddatli va barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari asosida kichik biznes innovatsion faoliyatini rivojlantirish bo'yicha quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Davlat–biznes–ilm-fan integratsiyasini kuchaytirish. Innovatsion g'oyalarni tijoratlashtirishga qaratilgan "uch tomonlama hamkorlik" (triple helix) mexanizmlarini institutsional darajada mustahkamlash, texnoparklar va innovatsion markazlar orqali kichik biznes subyektlarini ilmiy ishlanmalar bilan samarali bog'lash zarur.
2. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini diversifikatsiya qilish. Davlat-xususiy sheriklik asosida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish hajmini kengaytirish, venchur moliyalashtirish va startap fondlari faoliyatini rivojlantirish orqali kichik biznes uchun moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini yaxshilash lozim.
3. Innovatsion infratuzilmani hududiy rivojlantirish. Hududlarning ilmiy-texnik salohiyati va ixtisoslashuvini hisobga olgan holda innovatsion rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish hamda hududiy texnoparklar va innovatsion klasterlar tarmog'ini kengaytirish talab etiladi.
4. Kadrlar salohiyatini oshirish va innovatsion kompetensiyalarni rivojlantirish. Kichik biznes subyektlari uchun innovatsion menejment, raqamli texnologiyalar va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'yicha maxsus ta'lim dasturlarini joriy etish, oliy ta'lim muassasalari va biznes o'rtasidagi amaliy hamkorlikni kuchaytirish zarur.
5. Innovatsion faollikni baholash va monitoring tizimini takomillashtirish. Kichik innovatsion korxonalar bo'yicha alohida statistik hisob yuritish, innovatsion faoliyat samaradorligini baholovchi integral ko'rsatkichlar tizimini joriy etish innovatsion siyosatning aniqligi va samaradorligini oshiradi.
6. Innovatsiyalarni tijoratlashtirishni rag'batlantirish. Intellektual mulk obyektlarini himoya qilish va ulardan foydalanish tartib-taomillarini soddalashtirish, kichik biznes uchun patentlash va litsenziyalash bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan rag'batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6102462>
2. McLean T. Manufacturing Enterprises: Management and Case Studies. — New York: Productivity Press, 2015. — 240 p.
3. Muxitdinov Sh.Z. Ishlab chiqarish korxonalarida risklarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish (Farg'ona vodiysi yengil sanoat korxonalarini misolida): 08.00.13 — "Menejment" ixtisosligi bo'yicha i.f.d. (DSc) dissertatsiya ishi. — Namangan, 2024.
4. Ermatov G'.X. To'qimachilik sanoati korxonalari ishlab chiqarishining investitsion faolligini rivojlantirish: 08.00.03 — "Sanoat iqtisodiyoti" ixtisosligi bo'yicha i.f.d. (PhD) avtoreferati. — Toshkent: Davr Matbuot Savdo, 2025.
5. Ergashev S.S. Sanoat korxonalarida resurs tejamkorligini ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish: 08.00.03 — "Sanoat iqtisodiyoti" ixtisosligi bo'yicha i.f.d. (PhD) avtoreferati. — Toshkent: "Akademiya nashriyot markazi" DUK, 2025.
6. Abduvaliev Z.M. Corporate social responsibility as an important factor in the sustainable development of modern companies // The American Journal of Management and Economics Innovations. — 2021. — Vol. 3, No. 4. — P. 42–53.
7. Abduvaliev Z.M., Maxsudov B. Korporativ ijtimoiy mas'uliyat zamonaviy kompaniyalar barqaror rivojlanishining muhim omilidir // Jamiyat va boshqaruv. — 2021. — № 3. — B. 140–147.
8. Abduvaliev Z.M., Maxsudov B.Y., Yuldashaliev I.Y. Theoretical foundations of the formation of corporate reporting // Academic Journal of Digital Economics and Stability. — ISSN 2697-2212. — URL: <https://academicjournal.io>
9. Karimov I. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. Qurilish korxonalarida investitsiyalarni boshqarishning xorijiy tajribalari va ularni mamlakatimizda qo'llash yo'llari. — 2025.



10. Karimova I. Qurilish sohasida investitsion faoliyatni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari // Muhandislik va iqtisodiyot. — 2025. — T. 3. — № 4.
11. G'iyosov I.K., Karimov I.O. The role and importance of the time factor in determining the effectiveness of investment management in construction enterprises // American Journal of Business Management, Economics, and Banking. — 2023. — Vol. 19. — P. 93–99.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
